



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 8-fevral soni va Internet resurs: www.lex.uz.

3. Mirzayev T. O‘zbek folklorida lapar. – O‘TA, 1998, 4-son. Navro‘z// Qo‘shiqlar, afsonalar, odatlar, irimlar, Tuzuvchilar: T.Mirzayev, M.Jo‘raev –T.: “Fan”

4. Toshmatov O‘.Folklor qo‘shiqlari.T:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.- B.6.

5. Safarov O. O‘zbek bolalar folklori.T:”O‘qituvchi” 1985.-B.5.

6. Musaqulov A. Terma kitobda: “O‘zbek folklori ocherklari”, 1-tom. –T.: “Fan”, 262-272-b. yana: O‘zbek xalq lirikasi. –T.: “Fan”, 1995; O‘zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati. DDA. –T.: 1995; Ostonasi tillodan // To‘y qo‘shiqlari (Tuzuvchilar M.Mirzaev, A.Musaqulov) – T.: “Fan”, 1998.

7. Rajabov T. Educational importance of folk songs in primary education //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 1. – №. 01. – S. 72-79.

8. Radjabov T.I., Rutamova M.F. Formirovanie duxovno-nravstvennykh kachestv uchashixsya cherez narodnyye pesni v sisteme nepreryvnogo obrazovaniya – aktualnaya pedagogicheskaya problema // EVROPEYSKIY JURNAL INNOVATSIY V NEFORMALNOM OBRAZOVANII. – 2022. – T. 2. – №. 2. – S. 404-408.

9. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O‘zbek xalq musiqa merosida o‘quvchilarni vatanparvalik ruhida tarbiyalash vositasi //Ijtimoiy Fanlarda Innovatsiya onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 6. – S. 139-145.

10. Rajabov T.I. Uovershenstvovanie nauchno-metodicheskix vozmojnostey obucheniya buxarskim detskim folklornim pesnyam v sredney obshchobrazovatelnoy shkole //Nauka, texnika i obrazovanie. – 2021. – №. 2-2 (77). – S. 84-86.

G‘IJJAK CHOLG‘U SOZIDA MILLIY MUSIQIY MEROSNI O‘RGANISH MASALALARI

G‘anijon XUDOYEV,

*O‘zDSMI, “Cholg‘u ijrochiligi va
musiqa nazariyasi” kafedراسi professori v.b.,
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada g‘ijjak cholg‘u sozi ijrochiligini o‘rganishda o‘zbek milliy musiqa merosiga mansub milliy bezak va qochirimlarning tutgan o‘rni, shuningdek, g‘ijjak cholg‘u sozi ijrochiligini o‘zlashtirishga qaratilgan “Maxsus cholg‘u” fanining ahamiyati mazkur fanda yaratilgan mavjud adabiyotlar kesimida tahlil qilindi.*

***Kalit so‘z:** g‘ijjak, nola, qochirim, an‘ana, kashish, maxsus cholg‘u.*

So‘nggi yillar Yangi O‘zbekistonda san‘atning barcha sohalari kabi musiqa san‘atida ham yangi sifat va o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu hol, jumladan musiqa ta‘limida ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu albatta bevosita ta‘limga, xususan, musiqa ta‘limiga Hukumat darajasida yuksak e‘tiborning samarasidir.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-PF-sonli Farmonida belgilangan “2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib,

amalda joriy etish” bandiga muvofiq, shuningdek, 2021-yil 9-dekabrda “Madaniyat va san’atni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-68-sonli Qaroridagi “Madaniyat va san’at sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shu bilan birga, madaniyat va san’at muassasalarini zarur adabiyotlar va davriy nashrlar bilan ta’minlash” bandiga muvofiq salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagi talab va takliflar kelib chiqqan holda G‘anijon Xudoyev oldin musiqa va san’at maktablarida o‘quv qo‘llanma tarzida amaliyotga joriy etgan hamda tajribadan o‘tkazgan “Boshlang‘ich g‘ijjak saboqlari (I kitob)”⁸³ va “G‘ijjak saboqlari (II kitob)”⁸⁴ o‘quv adabiyotlarini oliy ta’lim muassasasi talabalari uchun darslik talablari asosida shakllantirganligida ko‘rish mumkin. Muallif mazkur darslikni tuzishda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasida tasarrufidagi “60112400 – Professional ta’lim (60211900-Xalq ijodiyoti: cholg‘u ijrochiligi)” ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasida mavjud “Maxsus cholg‘u”⁸⁵ o‘quv dasturiga muvofiq tayyorladi.

Darslikni yaratishda muallifning yuqorida ta’kidlangan o‘quv qo‘llanmalari bilan bir qatorda S.Aliyev, R.Felitsiant, O.Xolmuhamedov, M.Toshmuhamedov, J.Usmonov, H.Ne‘matov, O‘.Rasulov, A.Ismoilov, S.Azizboyev kabi taniqli ustoz san’atkorlarning ilg‘or tajribalari inobatga olindi hamda g‘ijjak sozini o‘rganishga doir mavjud darslik va o‘quv qo‘llanmalar mazmunidan maqsadli foydalanildi. Bu o‘rinda S.Aliyev va R.Felitsiantlarning “G‘ijjak darsligi” (1961); O.Xolmuhamedovning “G‘ijjak sinfi metodikasi” (1987); J.Usmonovning “Yosh g‘ijjakchi” 1- (I kitob, 1995) va 2- (II kitob, 1997) kitoblari; M.Toshmuhamedovning “G‘ijjak taronalari” (1983), “G‘ijjak darsligi” (1995), “G‘ijjakda an’anaviy ijrochilikni o‘zlashtirish” (1999); S.Azizboyevning “An’anaviy g‘ijjak ijrochiligi” (2005) nomli o‘quv qo‘llanmalari qimmatli manbalar bo‘lib xizmat qilganligi e’tiroflanadi.

“Maxsus cholg‘u (g‘ijjak sozi uchun)” darsligining mazmunidan o‘rin olgan mavzular dars mashg‘ulotlari shaklida berilgan bo‘lib, bunda har bir dars davomida g‘ijjak cholg‘usida ijro etiladigan turli murakkablikdagi shtrixlarni o‘zlashtirish va shu orqali har xil janrdagi asarlarni ijro qilishga doir ko‘nikmalar shakllantirib borilishi ko‘zda tutilgan. Shu bilan birga talabalarga asarni ijro qilish paytida har bir barmoq joylashgan tovushga ravon, jozibali va ta’sirchan sadolarni hamohang qilish talabi ham qo‘yilgan.

Shuningdek, “Maxsus cholg‘u” o‘quv dasturidan kelib chiqqan holda o‘zbek an’anaviy ijrochiligida keng qo‘llaniladigan milliy bezaklar – nola, molish, kashish, qochirim, titratma kabi bir qator ijro uslublarini o‘rganishga doir mashq va

⁸³ Xudoyev G‘.M. Boshlang‘ich g‘ijjak saboqlari (1-kitob). BMSM uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: G‘afur G‘ulom nashr., 2015.

⁸⁴ Xudoyev G‘.M. G‘ijjak saboqlari (2-kitob). BMSMlar uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: G‘afur G‘ulom nashr., 2016.

⁸⁵ Maxsus cholg‘u. O‘quv dasturi [Tuzuvchilar: K.Shermatov va boshq.]. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 8 b.

topshiriqlar beriladi. Har bir ijro uslubi o‘zlashtirilgandan so‘ng esa xuddi shu kabi musiqiy amallar va milliy bezaklar qo‘llangan asarlar berilgan.

Darslikdagi asarlarni tartiblashtirishda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Ilmiy Kengashi tomonidan tasdiqlangan “Maxsus cholg‘u” o‘quv dasturida belgilangan talablar asos qilib olingan.

Kitobda an’anaviy ijrochilikni o‘rganish bo‘yicha alohida dars mashg‘ulotlari kesimida uslubiy ko‘rsatmalar berilgan bo‘lib, bu milliy musiqa merosimizdagi asarlarni to‘laqonli o‘zlashtirishda qo‘l keladi, degan umiddamiz. Endi darslikda berilgan shu milliy bezaklar xususida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

An’anaviy ijrochilikka xos milliy bezaklar.

Nola – yarim ton doirasigacha bo‘lgan ohangdor tebranuvchi tovush. Musiqa ijrochiligida keng qo‘llaniladigan vibrato singari, g‘ijjak sozida pardani barmoq bilan bosib muloyim va tez qimirlatish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Nolaning belgisi nota yozuvida to‘lqinsimon (w) chiziq bilan ifodalanadi.




Ustozlar nolaning ijro etilishiga qarab qisqa nola va uzun nola⁸⁶ yoki kechikkan nola, vaqtlirorq tugagan nola va nolaning davom ettirilishi kabi turlicha nomlaganlar.

Qisqa nola – bunda ma’lum tovush ustiga qisqa to‘lqinsimon belgi qo‘yiladi. Nolaga uchragan tovushni ijro qilayotganda ohangning xususiyati va cho‘zimiga qarab qisqaroq nola ijro etiladi. Bu nota yozuvida quyidagicha belgilanadi.



Uzun nola – bunda ma’lum tovush ustiga uzunroq to‘lqinsimon belgi qo‘yiladi. Mazkur nolaga uchragan tovushni ijro qilayotganda ohangning xususiyati va albatta cho‘zimiga qarab uzunroq nola ijro etiladi.



Mazkur keltirilayotgan mashqda uzun va qisqa nolalar uyushib kelmoqda



⁸⁶ O‘zbekiston xalq artisti, mohir kamon ustasi O‘lmas Rasulovning an’anaviy g‘ijjak ijrochiligi uslublariga tayanildi.

Erkin nola – bunda ijrochi nota cho‘zimining qaysi hissasida ushbu nolani erkin tarzda ifoda etishi kuyning xarakteridan kelib chiqqan holda amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Vaqtliroq tugagan nola – bu turdagi nolaning ijro etilishi nota sadolanishi tamom bo‘lishidan avval to‘xtatiladi. Yozuvda nola belgisi to‘g‘ri chiziq bilan yakunlanadi⁸⁷.



Nolaning davom ettirilishi – punktir chizig‘i bilan ko‘rsatiladi⁸⁸.



Rez. So‘nggi paytlarda ustoz-sozandalar tomonidan an’anaviy g‘ijjak ijrochiligiga xos bo‘lmagan rez usuli ham amaliyotda qo‘llanila boshlandi. Bunday ijro usulining yuzaga kelishi shiddat bilan rivoj topib kelayotgan zamonaviy musiqaning ta’sirida ko‘rinadi.

Rez - g‘ijjakda kamoning eng uchki qismida o‘ng qo‘lni tez va ravon harakati orqali amalga oshiriladi⁸⁹. Asosan bunday ijro yo‘sinini sozanda o‘z ta’biga ko‘ra, kuyning turli qismlarida ishlatishi mumkin, ba’zida kuylarning dinamik rivoji va avj nuqtalarida qo‘llyadi. Bundan tashqari oddiy bezak sifatida ham ishlatilishi mumkin:



Molish - mazkur an’anaviy ijro bezagi, tovushni chorak ton doirasida *legato* yordamida ko‘tarish yoki tushirish orqali amalga oshiriladi. Bunda biror bir tovush barmoq bilan *glessando* orqali *legato* yordamida ijro etiladi. Molish bezagi tovush yuqorisiga ko‘rsatgich chiziqlar (↑.↓.) qo‘yish bilan belgilanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, molish ijro etilishiga qarab ikki xil bo‘ladi:

↑ – mazkur molish belgisi tovushni ohang xususiyatidan kelib chiqib shorak ton atrofida yuqoriga tomon ko‘tarilishini ifodalaydi.



↓ – mazkur molish belgisi tovushni ohang xususiyatidan kelib chiqib shorak ton atrofida pastga tomon tushirilishini ifodalaydi.

⁸⁷ M.Toshmuhamedov. G‘ijjakda an’anaviy ijrochilikni o‘zlashtirish. – T., 1999. 9-b.

⁸⁸ M.Toshmuhamedov. G‘ijjakda an’anaviy ijrochilikni o‘zlashtirish. – T., 1999. 9-b.

⁸⁹ S.Azizboyev. An’anaviy g‘ijjak ijrochiligi. – T.: Bilim. 2005. 18-b.



Forshlag – (nemischa “vorschlag” so‘zidan olingan bo‘lib, “oldindan”, “bosim oldidan urish”⁹⁰ ma’nolarini anglatadi) an’anaviy ijrochilikka xos ijro bezagi bo‘lib, bunda aksariyat forshlaglar tovush oldidan, ya’ni mazkur tovush cho‘zimi hisobidan ijro etilib, an’anaviy ijroda o‘ziga xos nola va qochirimni ifodalaydi.



Kashish – bu an’anaviy ijro bezagini ijro etishda, 1- yoki, 2- barmoq g‘ijjak torining muqim pardasida qattiq bosilib, uni asta-sekin glissando usuli yordamida tovush pasayish tomonga qarab bosim kuchi kamayib boradi, natijada ijroda chuqur ta’sirchanlik, qalb dardi ifodalanadi. Kashish yozilishda, tovushning ustiga yoki ostiga yoysimon chiziqcha (U) qo‘yish bilan belgilanadi.



Mordent – (italyancha “mordente” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘tkir”, “uchi o‘tkir”⁹¹ ma’nolarini anglatadi) mazkur ijro bezagida muqim joylashgan bir tovushni uchga bo‘lib ijro etish, ya’ni, mazkur asosiy tovush, bir pog‘ona yuqori yoki pastdagi tovush va yana asosiy tovushga qaytish. Qaysiki, tovushning yuqorisiga mordent belgisi qo‘yilsa, mazkur tovush o‘z hisobi doirasidan chiqmagan holda uchga bo‘linib ijro etiladi. Yozuvda tovushning ustiga quyidagi (W) belgini qo‘yish bilan farqlanadi:



Titratma⁹² – bu usul musiqa ijrochiligida keng qo‘llaniladigan trel (tr) ning bir ko‘rinishi bo‘lib, an’anaviy g‘ijjak ijrochiligida quyidagicha ijro etiladi. Birinchi barmoq muqim parda ustida joylashib, ikkinchi yoki uchinchi barmoq bilan yonma-yon joylashgan tovushni tezkorlik bilan bir necha marta bosib yuborish natijasida sayroqi ovoz chiqarish orqali amalga oshiriladi.



Taklif etilayotgan mazkur “Maxsus cholg‘u (G‘ijjak sozi uchun)” darsligida an’anaviy g‘ijjak ijrochiligini o‘rganishga qaratilgan barcha milliy bezaklar o‘zbek mumtoz musiqa merosida mavjud kuy va ohanglarni sozandaning ijro

⁹⁰ I.Akbarov. Musiqa lug‘ati. – T.:O‘qituvchi, 1997, 327-b.

⁹¹ I.Akbarov. Musiqa lug‘ati. – T.:O‘qituvchi, 1997, 176-b.

⁹² O‘zbekiston xalq artisti, mohir kamon ustasi O‘lmas Rasulovning an’anaviy g‘ijjak ijrochiligi uslublariga tayanildi.

imkoniyatlaridan kelib chiqib imkon qadar dardli va ta'sirli ijro qilishiga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Azizboyev S. An'anaviy g'ijjak ijrochiligi. *Madaniyat va san'at kollejlari uchun o'quv qo'llanma*. – T.: “Bilim” nashriyoti, 2005.
2. Akbarov II., Musiqa lug'ati. – T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 1997.
3. Toshmuhamedov M. G'ijjakda an'anaviy ijrochilikni o'zlashtirish. – T., 1999.
4. Toshmuhamedov M. G'ijjak darsligi. – T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 1995.
5. Xudoyev G'. G'ijjak cholg'usi ijrochilik an'analari. – T.: “Muharrir”, 2014. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAJ:ULOm3_A8WrAC
6. Xudoyev G'.M. Boshlang'ich g'ijjak saboqlari (1-kitob). Bolalar musiqa va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “G'afur G'ulom” nashriyoti, 2015. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAJ:Yowf2qJgpHMC
7. Xudoyev G'.M. G'ijjak saboqlari (2-kitob). Bolalar musiqa va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “G'afur G'ulom” nashriyoti, 2016. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAJ:kc_bZDykSQc
8. Xudoyev G'.M. Buxoro mumtoz musiqa an'analari. PhD dissertatsiyasining avtoreferati. – T.: “Discover print” MCHJ bosmaxona. 2018. – B.54. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=2vt6_Y4AAAAJ&page_size=80&citation_for_view=2vt6_Y4AAAAJ:Zph67rFs4hoC
9. G'ijjak taronalari. (tuzuvchi: M.Toshmuhamedov), – T.: “G'afur G'ulom” nashriyoti, 1983.

ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ НАСЛЕДИЯ ВЕЛИКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА В ДОШКОЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ

Нилуфар РЕЖАМЕТОВА,
Доцент ТГПУ, PhD.

Аннотация. В данной статье рассматривается наследие великих ученых Востока о музыкальном образовании и воспитании дошкольников. Автор статьи концентрирует научное внимание на наиболее важных аспектах концепции трудов великих мыслителей прошлого, актуализации их творческих идей в дошкольной музыкальной педагогике Нового Узбекистана.

Ключевые слова: наследие, музыкальное образование, воспитание, дошкольник, творчество, педагогика.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharqning buyuk allomalari merosining maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqa ta'limi va tarbiyasidagi o'rni o'rganiladi. Maqola muallifi Yangi O'zbekistondagi maktabgacha musiqa pedagogikasida o'tmishning buyuk mutafakkirlari ijodiy kontseptsiyasining eng muhim jihatlariga hamda ularning ijodiy g'oyalarini dolzarblashtirishga ilmiy e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar: meros, musiqa ta'limi, tarbiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, ijodkorlik, pedagogika.

Обращение к научно-педагогическому наследию великих мыслителей Востока в проекции на современную музыкальную педагогику, анализ ключевых положений методов обучения музыке в трактатах восточных